Geologiya sohasini rivojlantirish istiqbollari

Bugungi kunda O’zbekiston zamini qa’rida 70 dan ortiq turdagi 2000 tadan ko’proq foydali qazilma konlari mavjud bo’lib, ularni o’zlashtirish orqali yer osti boyliklarining yurtimiz iqtisodiy rivojlanishida munosib ulushi bo’lishiga yo’naltirilgan samarali sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yurtimiz ma’dan konlari bilan bir qatorda noma’dan foydali qazilmalariga ham juda boy.

Prezidentimiz 27-aprel kuni o’tkazgan geologiyada amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va galdagi vazifalar muhokamasiga bag’ishlangan yig’ilishda oxirgi uch yilda ushbu sohani tubdan isloh qilish bo’yicha muhim qarorlar qabul qilingani va shu davrda tarmoqqa ajratilgan mablag’lar 3 barobarga oshgani ta’kidlandi.

Darhaqiqat, sohadagi uskunalarning uchdan bir qismi yangilandi. 850 tadan ziyod ilg’or va innovatsion texnologiyalar joriy etildi. Natijada qidirilayotgan qazilma boylik turlari 3 tadan 17 taga ko’paydi. Ruda tarkibida aniqlanadigan elementlar soni 12 tadan 40 taga yetkazildi. 2019 yilda Markaziy Osiyoda ilk bor zamonaviy aerogeofizik kompleks ishga tushirilib, yer qa’rini innovatsion usullarda o’rganish yo’lga qo’yildi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-maydagi “Qattiq foydali qazilmalar va konlarni geologik o’rganish maqsadida, dasturiy istiqbolli tanlangan maydonlarni va foydali qazilmalarining strategik muhim turlari sanoatini o’zlashtirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mezonlarini tasdiqlash to’g’risida”gi qaroriga muvofiq tasdiqlangan geologik o’rganish uchun xorijiy investitsiyalar jalb qilinadigan qattiq foydali qazilmalarning strategik muhim turlari istiqbolli maydonlari ro’yxati tuzilib, unga 120 dan ortiq foydali qazilma konlari kiritilgan edi. Ushbu ro’yxatdagi konlarning 50 foizga yaqini Navoiy viloyati hududida joylashgan. Ayniqsa, Qizilqum va Nurota kon maydonlari noma’dan va ma’dan foydali qazilmalarga boy bo’lib, ushbu konlarda geologik tadqiqotlarni olib borishda yangicha yondashish talab etiladi. Yana shuni alohida ta’kidlash joizki, Navoiy viloyati hududida nafaqat foydali qazilma boyliklari, balki texnogen chiqindi uyumlari ko’p to’plangan bo’lib, ularning foydali komponentlarini kompleks o’rganishga yo’naltirilgan geologik tadqiqotlarni tizimli o’tkazish natijalari yurtimiz iqtisodiyotining rivojiga yana bir qo’shimcha manba bo’lib xizmat qiladi.

Sohaning investitsion jozibadorligini oshirish masalasi muhokama qilinar ekan, davlatimiz rahbari buning uchun xalqaro standartlarni joriy etish kerakligini ta’kidladi. Xorijiy mutaxassislarni jalb qilib, geologlarni JORC standartlari bo’yicha ma’lumot tayyorlashga o’qitish muhimligi qayd etildi. O’zlashtirish uchun tayyor 20 ta konga tajribali investorlarni jalb qilish, boshqa istiqbolli maydonlar bo’yicha sarmoyaviy loyihalarni shakllantirish yuzasidan ko’rsatmalar berildi.

2019-yilda Navoiy viloyatining erkin iqtisodiy hududga aylanishi hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-noyabrdagi “Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori nafaqat xorijiy investorlarning, balki mahalliy tadbirkorlarning ham Qizilqum va Nurota ma’dan maydonlaridagi foydali qazilma konlariga bo’lgan qiziqishlarini oshirmoqda.

Faqat, investorlarni o’ylantiradigan muammolardan biri, ko’pgina taklif qilinayotgan konlarning bashoratlangan zahiralar ekanligi yoki geologiya qidiruv ishlari oxiriga yetkazilgan bo’lsa-da, real mavjud zahiralar davlat zahiralar komissiyasiga topshirilib, kon sifatida davlat ro’yxatiga kiritilmaganligidir. Bu investorlar tomonidan qayta geologik tadqiqotlar olib borilishini talab qiladi. Investorda mablag’ bor, lekin unda geologik tadqiqotlar olib borish uchun na tajribali mutaxassis, na texnik imkoniyati bor.

Ayni shu masalalar yechimida Geologiya fanlari universitetining tashkil etilishi ayni muddaodir. Bu bo’yicha tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Uning o’quv dasturlari Sankt-Peterburg konchilik universiteti va boshqa xorijiy ta’lim muassasalarning ilg’or tajribasi yordamida ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda, dunyo tajribasidan kelib chiqib, ko’pgina hollarda ba’zi noma’dan konlarining iqtisodiy samaradorligi ma’dan konlaridan olinadigan foydadan ancha yuqoriligi e’tirof etiladi. Bunda, noma’dan

boyliklarni qazib olishga, qayta ishlashga, boyitishga ketadigan sarf- harajatlarning nisbatan sezilarli darajada pastligi, aksariyat hollarda noma’dan konlarining yer yuzida yoki yer yuziga yakin joylashgani hamda ulardan xalq xo’jaligining turli sohalarida tabiiy holda qo’llash imkoniyatining borligi ham muhimdir. Masalan, bentonit gillari farmatsevtikadan tortib oziq-ovqat sanoatigacha bo’lgan 200 dan ko’proq sohalarda tabiiy holda yoki qisman tozalangan va boyitilgan tarzda ishlatiladi. Sarflanadigan harajatlar esa sotilish narxining bor yo’g’i 25-30 foizini tashkil etadi. Qiyoslaganda oltin ma’danini qazib olish va tayyor mahsulot holiga keltirishgacha bo’lgan harajatlar katta mablag’ talab qilishi bilan birga, uning tannarxi sotilishiga nisbatan 70-75 foizni tashkil etadi.

Bu borada geologlar uchun sohasining yetuk mutaxassisi bo’lishning o’zigina yetarli emas, ya’ni boshqa turdosh sohalar vakillari (konchilar, texnologlar, geotexnologlar, kimyogarlar, fiziklar) ishtirokisiz, ularning ilmiy salohiyatlarini jalb qilmasdan, olimlar, ular bilan bir jamoa bo’lmasdan turib, ular oldilariga qo’yilgan vazifalarning samarali yechimini topa olmaydilar.

Shuning uchun, geologlar, konchilar, texnologlar, geotexnologlar, kimyogarlar, fizik va matematik olimlar ishtirokida, sohaga oid ishlab-chiqarish korxonalarining yetuk mutaxassislarini jalb qilgan holda birlashgan ilmiy jamoalarni kuchli ilmiy salohiyatga ega bo’lgan kooperatsiya ko’rinishidagi guruhlar sifatida tashkil etib, ilmiy-amaliy tadqiqot va innovatsion megaloyihalarni amalga oshirish samarali natija beradi, deb o’ylaymiz.

To’g’ri, O’zdavgeolqo’m ekspeditsiyalarida geologik tadqiqotlarni olib borishga texnik imkoniyatlar va yuqori malakali mutaxassislar bor. Lekin ular birinchi navbatda o’zlariga yuklatilgan geologiya qidiruvining davlat dasturi doirasida ishlashadi. Investor buni tushungan holda o’zi tanlagan obyektda geologiya qidiruv ishlarini sifatli va tezkor olib borish imkoniyatiga ega bo’lgan muqobil korxonani qidirib, boshi berk ko’chaga kirib qoladi. Bu esa, o’z navbatida, investorlarga taklif qilinayotgan konlarning investitsion jozibadorligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bu muammoni Fanlar akademiyasi Navoiy bo’limi olimlari tomonidan Bo’lim qoshida davlat-xususiy sherikchilik asosida hamda xorijiy investorlar ishtirokida ochish taklif qilinayotgan mobil geologorazvedka otryadi samarali yechishi mumkin.

Bundan tashqari, bu jarayonlarda, Navoiy bo’limi tomonidan Fanlar akademiyasi tassarufidagi ilmiy-tadqiqot institutlari laboratoriya bazasidan, ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish bilan bir qatorda, yangicha yondashish sifatida bugungi kunda nafaqada bo’lgan yetuk geologlarni hamda hududdagi investorlarga taklif qilinayotgan konlarning dastlabki tadqiqotlarida ishtirok etgan keksa olimlar va mutaxassislarni jalb qilish orqali, vaqtinchalik ijodiy jamoa ko’rinishidagi yuqori potentsialga ega bo’lgan guruhni tuzish imkoniyati ham yaratiladi.

Bunday Ilmiy jamoa geologiya qidiruv ishlarini tez, samarali, ishonarli olib borilishiga va investorning ishonchini qozonishga, uning qo’rqmasdan mablag’ kiritishiga zamin yaratadi.

Abdurazzoq MIRZAYEV,

O’zR FA Navoiy bo’limi raisi,

geologiya-mineralogiya fanlari doktori.